



## SHAXSLARARO MUNOSABATLAR PSIXODIAGNOSTIKASI

---

*Jumaniyazova Shaxnoza Shavkatovna*

*Xiva tumani 2-maktabi psixologi*

**Anotatsiya:** Shaxslararo munosabatlarni aniqlashga qaratilgan diagnostika metodikalari va ularni olish tartibi.

**Kalit so'zlar:** shaxslararo munosabat psixodiagnostikasi, sotsiometriya, referentometriya, "oila rasmi", "Jil film "proektiv metodikalari.

Munosabat – odamlar o'rtasidagi birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojining ko'p qirrali jarayonidir. Munosabatning uch jihati farqlanadi: kommunikativ (axborot uzatish) , pertseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) , interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish). Nutq – bu og'zaki kommunikatsiya, til yordamida munosabat qilish jarayonidir. Psixodiagnostikada shaxslararo munosabatlarni o'rganish uchun turli metodikalar ishlab chiqilgan. Quyida ular bilan tanishamiz. 10.2. Sotsiometriya, referentometriya metodikalari Sotsiometriya metodining asoschisi amerikalik psixolog D.J. Moreno hisoblanadi. Sotsiometriya yordamida guruhdagi shaxslararo munosabatlar aniqlanadi. Metodika o'tkazishdan maqsad: Metodika guruhdagi shaxslararo munosabatlarda simpatiya(yoqish) va antipatiya(yoqtirmaslik), guruhdagi jipslik, norasmiy munosabatlarni tadqiq qilishga mo'ljallangan. SHuningdek, metodika yordamida guruhdagi norasmiy liderlar, munosabatlarni va boshqa xususiyatlarni aniqlash mumkin. Metodika ikki xil shaklda o'tkaziladi. Birinchi shakli noparametrik tarzda metodikani o'tkazishda sinaluvchilarga o'z guruhidan tanlaydigan kishilarning soni chegaralab qo'yiladi. Sinaluvchining oldiga guruh a'zolarining ro'yxati qo'yilib, shu kishilarga o'ziga yoqish yoki yoqmaslik darajasiga qarab raqamlab chiqish taklif etiladi. Noparametrik metodikaning noqulaylik tomoni shundaki, guruh a'zolari soni 15-16 tadan oshgandan so'ng sotsiometrik tanlovlar sonini hisoblash qiyinlashib qoladi. Bunday vaziyatda kompYuterdan foydalanish maqsadga muvofiq. Noparametrik metodikaning yana bir noqulayligi, shaxs guruhidagi 20-25ta tengdoshlarini ob`ektiv ravishda baholashga, munosabatini bildirishga qisqa vaqt ichida qiynalib, tasodifiy tanlov bajarishi mumkin. Metodikaning ikkinchi shakli parametrik tarzdagi tanlovlar bo'lib, shaxsga o'zi faoliyat ko'rsatayotgan guruhdan 3-5 tagacha kishilarni tanlash taklif etiladi, ya'ni tanlov soni 3-5 ta kishi bilan chegaralanadi. Parametrik tarzdagi



tanlovlar Tadqiqotchilarning fikricha, parametrik tarzdagi tanlovlar sodda, ishonchli bo'lib muhim tanlovlar sonini va qiymatlarini hisoblashlarini osonlashtiradi. Tanlovlar sonining chegaralanganligi (3-5 kishi) shaxsning talovlarga jiddiy e'tibor bilan yondashishiga sabab bo'ladi. Sotsiometriya tanlovlarini o'tkazishda eksperimentator tomonidan sinaluvchilarga beriladigan savollar mezonlarining ahamiyati katta. Bu mezonlar quyidagi shaklda bo'lishi mumkin. 1) Guruhdagi tengdoshlaringizdan o'zingizga yoqqan uch kishini uyingizga mehmonga chaqirmoqchisiz. Siz ulardan qaysi birini birinchi o'rinda, qaysisini ikkinchi va qaysisini uchinchi o'rinda taklif etasiz? 2) Sinf etakchisini saylash uchun, guruhda birinchi, ikkinchi, uchinchi o'rinda kimlarni taklif etasiz. Sotsiometriya metodikasini o'tkazish uchun sinaluvchilarga testni o'tkazish maqsadi qisqacha tushuntiriladi. Tanlovlarni birov bilan maslahatlashmasdan, mustaqil ravishda amalga oshirish talab qilinadi. Iloji boricha, har bir stolda bitta o'quvchi test savollariga javob yozishni ta'minlanishi zarur. Har bir o'quvchi to'ldirgan —sotsiometrik kartochkalar asosidalsotsiometrik matritsa to'ldiriladi. O'tkazish tartibi: kichikroq qog'ozga o'quvchining ismi va familiyasi yozilib, tagiga chiziladi. O'quvchiga: eng yaqin do'stlaringdan 3 tasining ismi va familiyasini ketma-ket shu qog'ozga yoz, birinchi o'ringa kimni qo'yasan, ikkinchi o'ringa kimni va hokazo deb aytiladi. Bu qog'ozlar to'planib natijalar umumlashtiriladi va sotsiometrik matritsa tuziladi. Har xil statuslarni quyidagicha aniqlaymiz. O'rtachadan ikki barobar ko'p tanlov olsa — Yulduzlar hisoblanadi.  $St > m + 2k = 6$  ta O'rtachadan bir-bir yarim barobar ko'p tanlov olsa —yoqimtoylar  $St > m + 1(1,5)k = 5-4$  ta O'rtacha tanlov olgan = o'rtacha (+3) O'rtachadan 1 yoki 1,5 barabor kam tanlov olganlar —qabul qilinmaganlar  $St > m - 1(1,5)k = 1-2$  ta Umuman tanlov olmaganlar —yakkalanib qolganlar deyiladi.  $St > m - 2k = 0$  ta. Sotsiometrik tanlov jarayonida qog'ozning orqa tomoniga «Sarvar sen nima uchun Sardorni tanlading deb so'raladi va javobi yozib qo'yiladi. Bu tanlov motivlarini aniqlash jarayonidir. Sotsiogramma Guruhning ichidagi kichik guruhchalarni aniqlash, kichik guruhchalarda o'zaro munosabatlar (statuslar), lider va —yakkalanib qolganlarning shaxslararo munosabatlarini yaqqolroq va aniq ko'rish uchun sotsiogrammadan foydalaniladi. Sotsiogramma —nishon Guruhda har bir o'quvchining o'zni, mavqei, boshqa tengdoshlar bilan munosabatlarini yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun guruh a'zolarining tanlovlari ifoda etilgan sotsiogramma —karta monogramma tuziladi. —Karta monogramma guruh jurnali asosida tuzilib, har bir o'quvchining tengdoshlari bilan munosabatini ifoda etadi. Sotsiometriya metodikasining natijalari aniq, ishonchli bo'lishi uchun metodikani o'quv yilining o'rtalarida o'tkaziladi.



Metodikani bir yilda bir necha marta o'tkaziladi va chiqqan natijalar umumlashtiriladi.

### Referentometriya

Ijtimoiy psixologiyada shaxs uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan kishilarni aniqlash uchun referentometriya metodikasi qo'llaniladi. Referent guruhga kiruvchi kishilarni aniqlashning ahamiyati shundaki, shaxs uchun ularning fikri, munosabatlari qadrli va ahamiyatli ekanida. Sinaluvchi uchun referent shaxslarni aniqlash, unga 10 ta savol –vaziyat (1-A) va sinaluvchining atrofidagi shaxslarning ro'yxati beriladi. (1-A)

Siz boshqa shaharga kim bilan borgan bo'lar edingiz (sayohat yoki ish bilan)? Hayotingizda ko'ngilsiz voqea ro'y bersa, bu haqda kimga gapirib berar edingiz? Siz tug'ilgan kuningizni kim bilan nishonlar edingiz?

Siz vaqtingizni ko'proq kim bilan o'tkazar edingiz?

Sizning kamchiliklaringiz?

Sizga yoqqan kishini uchratdingiz. Kim uni to'g'ri baholashga yordam berar edi? Siz o'z hayotingizni o'zgartirmoqchisiz. Bu haqda kim bilan maslahatlashasiz? Hayotda siz kimdan o'rnak olasiz? Siz ko'poq kimga yoqishni istar edingiz?

Siz kimga o'z sirlaringizni aytib berasiz? (1-B) 1.Ota-onamga  
2.Qarindoshlar(buva, buvi, amaki, tog'a, xola)

3.Aka, opa, uka, singil

4.Katta yoshdagi tanish kishilarga

5.Oilamizning, ota-onamning tanishlariga

6. Do'stlarimga

7.Eng yaqin do'stinga

8.Tanish bilishlar

9.Tanish qizga, tanish yigitga

10.Birga o'qiyotgan, ishlayotgan do'stlarimga.

11.To'garakda, sektsiya, studiyadagi(birga faoliyat Yurgizuvchi) do'stlarimga.

12. Tarixiy shaxslarga

13 Mashhur kishiga.

14.Do'stlaring orqali tanishgan kishiga

15.Badiiy personajga.

Sinovni boshlashdan oldin, sinaluvchilarga quyidagi ko'rsatma beriladi: Sizga taklif etilayotgan savol-vaziyatga (1-a), atrofingizdagi, tanish kishilar ro'yxatidan (1-B) kamida ikkita kishini tanlash kerak. Tanlashda birinchi tanlangan shaxs-ikkinchi tanlangan shaxsga nisbatan siz uchun ahamiyatliroq bo'lishi kerak.



Boshladikl Tanlov oʻtkazilganidan soʻng, 1B roʻyxatdan talangan shaxslarni besh balli shkalada(5,4,3,2,1) baholash zarur. Tanlangan shaxslar alohida varaqqa yozib, ularning ballari alohida hisoblanadi. Eng koʻp ball olgan shaxslar sinaluvchi uchun referent guruh aʼzolari hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish. R.I.Sunnatova, N.I.Irgasheva tahriri ostida. –T.: Sanʼat. 2008.156 b.
2. Bolshaya ensiklopediya psixologicheskix testov M. 2009
3. Gamezo M.V., Domashenko I.A. —Atlas po psixologii. Inform.-metod. posobie k kursu —Psixologiya cheloveka, —Pedagogicheskoe obshestvo, - M.: 2001. - 448 c.
4. Gilʼyasheva I.N. Voprosniki kak issledovaniya lichnosti // Методы psixologicheskoy diagnostiki i korrektsii v klinike. - L.: Meditsina, 1983. - S. 62-81
5. Graficheskie metody v psixologicheskoy diagnostike/ Sots. E.S.Romanova, O.F.Potemkina. M.,1992.-256 s.